

**FARG'ONA VILOYATI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**QUVA TUMANI 16-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI MILLIY
G'OYA VA MA'NAVIYAT ASOSLARI FANI O'QITUVCHISI
VAXOBOVA EXTIBORXONNING BIR SOATLIK OCHIQ**

ДАРС ИШЛАНМАСИ

MAVZU: Vatanimiz timsollari
Darsning texnologik xaritasi

Kalit soʻzlar	Timsol, ramz, bayroq, gerb, madhiya		
Mavzuning qisqacha taʼrifi			
Oʻquvchilar ongida Vatanimiz timsollari haqida, davlatimiz ramzlari haqida tushuncha hosil qilish			
Oʻquv jarayonini amalgam oshirish texnologiyasi			
Metod: aqliy hujum, klaster metodlari			
Shakl: individual va kichik guruhlarda ishlash			
Vositalar: rasmlar, vatanimiz bosh maydoni aks etgan videotasma, tarqatma materiallar, davlat ramzlari aks etgan rasmlar			
Nazorat: “ragʻbat” yoki “jarima”kartochkalari bilan, yigʻilgan kartochkalarni umumlashtirgan holda			
Baholash: 5 ballik reyting asosida			
Darsning maqsad va vazifalari			
Taʼlimiy: Vatanimiz timsollari haqida maʼlumot berish			
Tarbiyaviy: Oʻquvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash			
Rivojlantiruvchi: Mustaqil fikrlashni oshirish			
Kutilayotgan natijalar			
Dars yakunida oʻquvchi biladi (bilim) Timsol soʻzining mazmun va mohiyati, Davlatimiz ramzlari-bayroq, gerb, madhiya.			
Dars yakunida oʻquvchi tushunadi (koʻnikma) Rasmiy va norasmiy timsollar mazmun va mohiyati.			
Dars yakunida oʻquvchi bajara oladi (malaka) Davlatimiz ramzlarini taʼriflab bera olish.			
Ishning nomi	Bajarilgan ishlar mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich: Tashkiliy qism	Salomlashish ,davomatni belgilash, siyosiy hamda maʼnaviy daqiqa oʻtkazish, guruhlariga boʻlish	Ogʻzaki soʻroʻv	5 minut
2-bosqich: Oʻtilgan mavzuni takrorlash	Aqliy hujum oʻtkazish. Oʻtgan darsda oʻtilgan mavzu soʻraladi. 1. Ozodlikka qanday erishildi. 2. Mustaqillik nima. 3. Suverenitet nima.	Aqliy hujum	10 minut
3- bosqich Yangi mavzu bayoni	Yangi mavzuni bayon qilishda klaster usulidan foydalaniladi. 1- guruhga davlat ramzlari. 2-guruhga Samarqandagi obidalar. 3-guruhga Rasmiy timsollar. 4-guruhga Davlat gerbi.	Klaster	15minut

4-bosqich Mustahkamlash	Guruhlarda vakillar chiqib “Marra sari olg’a” tarzida javob beriladi	Marra sari olg’a	10minut
5-bosqich Baholash	Guruhlarning yig’ib borgan “rag’bat” va “jarima” kartochkalari umumlashtiriladi, g’olib guruhlar aniqlanadi.	Guruh ishi 5 ballik tizimda	3minut
Dars yakuni			
6-bosqich	1. Darslikdagi savollarga javob berish. 2. Davlatimiz ramzlarini chizib kelish.		2minut

Yangi mavzu bayoni

Vatanimiz timsollari

Dunyodagi hamma narsaning ma'no-mazmunini o'zida mujassam etadigan timsoli bor. Jumladan, Vatanning ham timsollari ko'p. Vatanning timsollari rasmiy va norasmiy, tarixiy yoki zamonaviy bo'lishi mumkin. Mamlakatimizning davlat ramzlari bayrog'imiz, gerbimiz va madhiyamiz, shuningdek, respublika Prezidenti, parlamenti, hukumati, Konstitutsiyasi kabi davlatchilik belgilari rasmiy timsollar hisoblanadi. Chunki ularning har biri Vatanning eng muhim xususiyati — ozodligi va mustaqilligi, davlat suverenitetini ifoda etadi.

Rasmiy timsollar Vatanning mustaqil davlatchilik an'analari bilan bog'liq. Vatan timsollari xalqni birlashtirib, uni yagona maqsad sari safarbar etib yashashga, har qanday sharoitda ham o'z yurti manfaatlari uchun kurashishga da'vat etadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat bayroqi 1991-yil 18 noyabr kuni Oliy Kengashning navbatdan tashqari o'tkazilgan yettinchi sessiyasida qabul qilingan. Bayroqdagi moviy rang tiriklik, hayot ifodasi bo'lgan mangu osmon va obihayot ramzidir. Oq rang tinchlik ramzi, xalqimizning oliyjanob va ezgu intilishlari mujassamidir. Yashil rang esa tabiatning yangilanish ramzi. U qadim-qadimdan navqironlik, umid va shod-u xurramlik timsoli hisoblangan. Bayroqdagi qizil chiziqlar xalqimiz vujudidagi kuch-g'ayrat va qudrat belgisi. U mustaqillik yo'lidagi kurashlarni ham anglatadi. Yarim oy tasviri xalqimizning islom dim

an'alariga sodiqligi, ya'ni mustaqillikni ifoda etadi. Bayroqdagi o'n ikki yulduz falakdagi o'n ikki burjni bildiradi.

O'zbekiston Respublikasining davlat gerbi 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan. Gerbning chap tomonida bug'doy boshoqlari, o'ng tomonida esa ochilib turgan paxta shoxlari bayrog'imiz tasviri tushirilgan tasma bilan o'ralgan. Gerbning o'rtasida uzoqdagi tog'lar va daryolaiga tutash vodiy uzra quyosh zarrin nurlarini sohib turibdi. Gerbning yuqori qismida sharqda musamman deb ataladigan sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan. Musammaning ichida yarim oy va yulduz aks etgan. Gerbning old qismida, markazda qanotlarini yoygan Humo qushi turibdi. Gerbning pastki qismida O'zbekiston Respublikasi bayrog'ini ifoda etadigan tasma o'rtasiga «O'zbekiston» deb yozib qo'yilgan.

Vatanimizning davlat ramzlaridan yana biri — O'zbekiston madhiyasidir. Uning matnini O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov yozgan, musiqasini esa kompozitor Mutavakkil Burhonov yaratgan. Davlatimiz madhiyasida Vatanimizning betakror go'zalligi, xalqimizning oliyjanob fazilatlari, mustaqilligimizning abadiyligi, yorug' kela jagimiz madh etiladi.

O'zbekiston fuqarosi bo'lgan har bir inson davlatimiz madhiyasini yoddan bilishi va uning ma'nosini chuqur tushunib, kuylay olishi kerak. Bu qalbimizga g'urur, vujudimizga kuch-g'ayrat baxsh etadi, bizning Vatanimizga bo'lgan mehrimiz va sadoqatimizni, uning shon-u shuhratini ulug'lab, unga munosib farzand bo'lib yashashga tayyor ekanimizni ifoda etadi.